

Murotov Alisher Ergashaliyevich

O'rinova Gulmira Yunusaliyevna

Ro'zmatov Akmaliddin Abdumo'minovich

Dang'ara 1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

ANNOTATSIYA. *Maqolada, tabiat-jamiyat-inson munosabatlarida ekologik ahloqiy qarashlarning namoyon bo'lishi, tabiatga nisbatan yangicha yondashuvning tarixiy asoslari, rivojlanish jarayonlari haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga kelajak avlod uchun zaruriy axloqiy bilimlarni yangicha yondashuv bilan tabiat va inson o'rtasida bog'liqlik munosabatlari keng yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik globallasuv, ekologik axloq, ezgulik, yovuzlik, ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik bilim, ekologik norma, ekologik muhit, ekologik madaniyat, katastrofa, kataklizmlar.*

ABSTRACT. *The article reflects on the manifestation of ecological moral views in Nature Society-Human Relations, the historical foundations of a new approach to nature, development processes. At the same time, with a new approach to the necessary moral knowledge for the future generation, the relationship of connection between nature and man is widely covered*

Keywords: *environmental globalization, environmental ethics, goodness, evil, environmental consciousness, environmental activity, environmental knowledge, environmental norm, environmental environment, ecological culture, catastrophes, cataclysms.*

KIRISH Jamiyat taraqqiyoti tarixining turli bosqichlarida inson va tabiat munosabatlariga turlicha uslubiy yondashuvlar, muqobil ilmiy qarashlar tizimi shakllangan. Insonlarning dunyoqarash tizimida ma'naviy bo'shliq holatlari bugungi kunda ko'p uchramoqda. Bu qarashlardagi muqobilchilik va tarixiy davrga xos tahlil xususiyatlarini: bir tomondan, ishlab chiqarish kuchlari, ayniqsa

inson intellektual potentsiali natijasi bo'lgan fan-texnika, texnologiya rivojlanishi bilan "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarning murakkablashuvi; ikkinchi tomondan, umuman jamiyat ijtimoiy ong tizimidagi, xususan, ekologik ongning kundalik va nazariy darajalari, paradigmalari o'zgarib turish xususiyatlaridan qidirish kerak. Zero, har qanday tarixiy davrda ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini, rivojlanish darajasini baholaydigan mezonlar tarkibida ekologik axloq doimo ustuvor ahamiyat kasb etgan. Inson bilan tabiat azaldan bir biri bilan tinchlik va uyg'unlikda bo'lgan, uni oziqlantirib hayot uchun zarur bo'lgan narsalar yaratgan. Tamaddun (sivilizatsiya)ning dastlabki qadamlaridan boshlab tabiat inson ta'siri ostida o'zgardi. Buni jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning uchta asosiy davri orqali yaqqol ko'rish mumkin.

Birinchi bosqichda inson hayoti tabiiy sharoitlarga to'liq bog'liq edi. Bu davrda odamlar yig'im-terim, ov qilish bilan shug'ullanishgan va tabiatga hech qanday ta'sir ko'rsatishmagan. Taxminan 10 ming yil oldin insoniyat aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanib, jamoaviy mehnat ko'nikmalariga ega bo'ldi. Endi odamlarga tabiat beradigan nar sani olishning o'zi kifoya qilmadi hamda dehqonchilik va chorvachilikni o'rganishdi. Insonning tabiatga ta'siri sezilarli darajada oshdi: u o'rmonlarni kesish, yerosti boyliklarini qazish, uylar va shaharlar qurishni boshladi.

Bugungi davrni sanoat va ilmiy-texnologik kashfiyotlar davri deb atash mumkin. Insoniyat muvaffaqiyatli tarzda rivojlanmoqda, qo'l mehnati mashinaga almashtirildi va avtomatlashtirildi. Aholining ko'payishi bilan uning ehtiyojlari ham o'smoqda. Natijada ishlab chiqarish hajmi oshmoqda, tabiatdan yanada ko'proq resurslar qazib olinmoqda. Bu esa tabiatga ta'sir darajasining oshishiga, uning o'zini o'zi davolash qobiliyatining pasa yishiga olib kelmoqda. Boshqacha qilib aytganda, tabiat odamlar yo'q qiladigan va iste'mol qiladigan narsalarni qayta tiklashga ulgurma yapti. Bu esa inson hayotiga tahdid soluvchi ekologik muammolarning paydo bo'lishiga va ularning yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy dunyoda Yoshlarga faqat nazriy emas balki amaliy tajriba yo'llari orqali save, reproduction, action kabi atamlar nomi bilan turli ilovalar yoki dasturlar orqali yoshlarni qiziqtirish, ekologik muhitni his etish uchun turli

sayohtalarni uyushtirish shu yo‘l bilan bir ko‘chat ekish albatta ming savobi borligini kimgadir soya kimgadir shirin meva berishini va o‘tkir surunkali kasalliklarni oldini olish uchun yetarli keslarod zarurligi haqida turli targ‘ibot aksiyalari va turli tadbirlar uyushtirish haqida albatta bir o‘ylab ko‘rishimiz zarur .Avestoda ishlov berilmagan yer yoki ekin ekilmagan yerni balog‘atga yetgan qizga qiyos qilingan chunki u oila qurishni va farzand ko‘rishni istashi haqida aytib o‘tilgan. Zamonaviy yondashuv sifatida Bolalar maktab hududida qog‘oz va plastic chiqindini yig‘ib saralab ularni punktiga yetkazish.Topilgan mablag‘ni to‘plab gul urug‘lari va daraxt ko‘chatlarni sotib olib erta bahordan maktab hududida ekish,turli vedioroliklar olib ijtimoiy tarmoqqa qo‘yish va bolalar bog‘chasida targ‘bot ishlarini olib borish bu albatta o‘z samarasini beradi. Yer sayyorasida deyarli har kuni tabiat hodi sa lari – kataklizmlar sodir bo‘ladi. So‘nggi asrda kataklizmlar soni qariyb 20 baravar ko‘paydi. Yigirmanchi asrning boshlarida dunyoda yil davo mida o‘ndan ortiq, asrning o‘rtalarida esa ellikka yaqin tabiiy yoki texnogen hodisalar ro‘y bergan. Bu gungi kunda esa bu ko‘rsatkich yil davomida ikki yuzdan ortmoqda. Har kuni jamiyatning ekologik xavfsizligiga tahdid soluvchi bu kabi hodisalar tobora ko‘payib bormoqda. Davriy global halokatlar haqidagi g‘oya qadimda paydo bo‘lgan; 17— 18-asrlarda geol. tarixini o‘rganishda qo‘llanilgan. Paleontologiyaning asoschisi fransuz olimi J. Kyuvye 1812-yilda Yer qatlamlarining almashinishi bilan birga fauna va floraning almashinishi ham sodir bo‘lganligini va o‘tmishdagi geologik davrlarda organik dunyo o‘zgarishining sababini o‘zining katastrofalar nazariyasi asosida tushuntirdi. Kyuvyening uqtirishicha, Yer yuzining kattagina qismida ro‘y bergan halokatli tabiiy ofat (katastrofa) bu hududlardagi barcha hayvon va o‘simliklarni halok etgan. So‘ngra ularning o‘rnini omon qolgan joylardan kelgan, lekin qirilib ketgan turlarga hech qanday aloqasi bo‘lmagan yangi formalar egallagan.

Biz odamlarning hayotini osonlashtiruvchi qiziqarli va foydali texnologiyalar hamda texnologik taraqqiyot dunyosida yashayapmiz. Inson o‘z hayotini elektr, tele vizor, telefon yoki internetsiz tasavvur qila olmaydi. Atrofga nazar tashlasangiz uyda, maktabda sizni o‘rab turgan turli xil gadjetlarni ko‘rasiz. Biroq ushbu yutuqlarning salbiy tomoni ham mavjud – bunday taraqqiyot

natijalari butun dunyoda ekologik muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Darhaqiqat, hozirgi davr insoniyat hayotidagi barcha ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarda insonparvarlashuv jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. U.Saidov yozganidek: "Aslida, madaniyat inson faoliyatining ichki mazmunini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inson faoliyatining asosiy ma'no-mazmuni o'zini erkin ijod shaxs sifatida ro'yobga chiqarish, zarramazarra to'plab insoniylik dunyosini yaratish va shu asosda olamni ham insoniylashtirishdan iborat"[7;193-194] Mustabid tizim sharoitida kishilar ongida tabiiy boyliklarga mavhum umumxalq mulki, tabiatni moddiy boyliklarning bitmastuganmas omborxonasi, degan stereotiplarning shakllantirilishi, sharqona ekologik ma'naviy merosni, tarixiy an'analarni mensimaslik kayfiyati tizim manfaatlariga mos edi. Bugungi kunga kelib ekologik muammolarning globallashib ketishi tabiiy atrof muhitni muhofaza qilishga doir milliy tarixiy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Qisqa vaqt ichida xalqimizning uzoq tarixga ega bo'lgan ma'naviy-madaniy merosni tiklash, o'rganish borasidagi katta ishlar amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ekologik munosabatlarda axloqiy qarashlarning ustuvrlashuvini aniqlashtirishda tarixiylik analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy usulblardan foydalanilgan. Mutafakkirlarning ekologik axloq haqidagi qarashlari o'zaro solishtirilib, qiyosiy tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zoq tarixiy muddatni o'z ichiga olgan va xanuzgacha rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z asoratini saqlab kelayotgan iqtisodiy munosabat shakli iqtisodni har qanday ekologiyadan ustuvor va ekologik siyosatdan mutlaqo holiligini namoyon etmoqdalar. Garchi bunday o'lka va mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar yetarli bo'lsada, ularni amaliy tadbirga o'tkazib chiqilmagan yoki talablar davlat miqyosda targ'ib qilinmagandir. Aks holda qanday tushunish mumkin-ki, haqiqiy demokratiya va adolat mezonining o'chog'i bo'lmish Amerikada XIX asr ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida son-sanoqsiz

bo'lgan bizonlar yoppasiga qirib tashlandi, o'rmonlar maydoni 2 barobarga, yemirilgan va yuvilgan yerlar 40 mln.ga yetgan, qishloq xo'jaligi oborotidan 50 % tuproqli yerlar chiqib ketgan. Ilmiy- texnika yutuqlari u davrda ekologik xavfsiz muhitni saqlab qolishga emas, balki global miqyosda qurolli to'qnashuvlarda va sovuq urushlarda g'olib chiqish, ma'lum bir qatlamdagi aholini boyitishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham J.B.Lamark 1820-1960 yillarni "Inqilobiy sanoat yuksalish" davri ekologik xavfsizlikni keskin ravishda inqirozga tomon sudragan davri bo'ldi deb aytgan edi. Yer yuzida aholi sonini o'sishi ham ekologik muammo hisoblanadi. Aholini hisobga olish nafaqat Amerika Qo'shma Shtatlari, balki dunyoning boshqa mamlakatlari uchun ham muhimdir. Bu hukumatga millatning turli viloyatlarda aholini taqsimlashini aniqlashda yordam beradi. Bu malumotlarga ega bo'lish uchun hukumat o'zlarining mamlakatlarida ayni bir vaqtda va aynan bir joyda qancha odam yashayotganligi ro'yxatga oladi. Ro'yxatga olish natijasida mamlakat aholisining o'sish surati aniqlanadi. Amerika Qo'shma shtatlari tashkil etilganda, uning asoschilari aholiga asoslangan Vakillar uyini tuzganlar. Hukumat vakillari aholi ko'p maydonlarda ko'pchilikni, aholisi kam maydonlarda kamchilikni tashkil etganlar. 1787-yilda aholini ro'yxatga olish tartibi Konstitutsiyaga kiritilgan. Aholini ro'yxatga olish har 10 – yilda amalga oshirilishi kerak, shunda har bir mamlakat vakillarining soni hisoblab chiqiladi. 1970 - yildan Amerika Qo'shma Shtatlarida ro'yxatga olish dala ishchilari tomonidan amalga oshirilgan. Ular uyma-uy yurib har bir xonadonda yashovchi odamlar sonini hisoblaganlar. Keyinchalik ro'yxatga olish pochta orqali amalga oshirila boshlangan. Mamlakatda xizmat va mablag'larni to'g'ri taqsimlashda ro'yxatga olish ma'lumotlaridan foydalaniladi. Demak aholini ro'yxatga olish davlatning iqtisodiy potentsialini to'g'ri shakllantirishda katta yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Xulosa o'rnida shuni takidlab o'tishim zarur: bolaga dastlabki tarbiya albatta oiladan boshlanadi. Bola tabiatga nisbatan qarashlarini oiladan oladi daraxt kesishni emas balki ekishni, jonvorlarga ozor bermaslik, suvni behuda

sarflamaslik yoki ifloslamaslik bor narsalardan qayta foydalanish masalan plastik paketlarni do‘konga qayta olib borish, sotuvchisiz do‘kon tarmog‘ini tashkil etish, gullar yoki o‘simliklar bayramlarini butun mamlakat bo‘ylab nishonlash, shuningdek creativlikni ishga solgan holatda chiqindidan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy fanlarni tabiat bilan uyg‘unlikda olib borish olgan bilimlarini hayotda qo‘llash yo‘llari masalan yerga ishlov berish, quyosh harakatini qushlar harakatini kuzatish boshqa ko‘plab misollar keltirib o‘tish mumkin xalqimizda bir gap bor hayvon ham yotgan joyini tozalab o‘tiradi, shunday ekan ko‘plab ijtimoiy exprementlar yoki musiqa orqali yoki turli hayriya yoki volyontorlik ishlari bilan oz bo‘lsada o‘sib kelayotgan yosh avlodning axloqiy ongini o‘stirish insoniylik majburiyatidir. Davlat rahbarimizning BMT membarida aytgan nutqlari ko‘plab davlat rahbarlarini o‘ylantirishga majbur etdi, tabiat bizga bermoqda shunday ekan biz ham olish berish qonunuga roiya qilishimiz zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

(REFERENCES)

1. Ганс Йонас. Изменившийся характер человеческой деятельности. // Человек. № 3. 1999. –С. 5-18.
2. Расилов Д. Урбанизациялашган мухитнинг экологик маданиятни ривожлантиришдаги роли. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация Автореферати. –Тошкент: 2000. –Б. 19.
3. Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. –Б. 193-194.
4. Марфенин Н.Н. Гуманизм и экология. Журнал “Экология и жизнь” (избранные статьи). Стр.
5. <http://www.ecolife.ru/jornal/echo/2000-5-1.shtml>